

## O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH

*Ergashev Yusuf**Guliston davlat universiteti**Itimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada O'zbekiston ta'lim tizimidagi islohotlar va ularning ahamiyati, inklyuziv ta'limni yuksaltirish masalalari, 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasining pedagogik asosi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv, inklyuziv ta'lim, ta'lim, ta'lim shakllari, inklyuziv ta'limi, UNCPRD, UNICEF.

**Абстрактный.** В статье анализируются реформы в системе образования Узбекистана и их значение, вопросы совершенствования инклюзивного образования, педагогические основы концепции развития инклюзивного образования в системе государственного образования в 2020-2025 годах.

**Ключевые слова:** инклюзивное, инклюзивное образование, образование, формы обучения, инклюзивное образование, UNCPRD, ЮНИСЕФ.

**Kirish.** UNICEFning O'zbekistondagi eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri e'tibordan chetda qolgan bolalarni inklyuziv ta'lim bilan qamrab olishdir. Muhim ijobiy natijalar bilan bir qatorda tengsizlik hali ham davom etayotganini ko'rish mumkin. Bu, ayniqsa, qishloq joylaridagi maktabgacha yoshdagi bolalar va nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan seziladi. UNICEF ushbu masalalarga alohida e'tibor qaratib, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilmoqda.

Xususan, UNICEF hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi inklyuziv ta'lim bo'yicha yangi yo'riqnomalar, standartlar va mexanizmlar sinovdan o'tkaziladigan inklyuziv maktablarni modellashtirishni boshladilar. Bu inklyuziv ta'lim sifatini yanada yuqori standartlarga ko'tarishga qaratilgan yangi qonunchilik va siyosatni ishlab chiqish uchun ma'lumot beradi. O'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha boshqa tashabbuslarni to'ldirgan holda bunday maktablarning ilg'or tajribalari o'rganiladi va tadbqiq etiladi.

UNICEFning maktab binolarini universal loyihalash bo'yicha yo'riqnomasiga asoslanib, nogironligi bo'lgan bolalar uchun qulay infratuzilmaga ega maktablarni loyihalash, shuningdek, Toshkent shahridagi oddiy maktabda tegishli ishlarni amalga oshirishni UNICEF qo'llab-quvvatladi. Bu inklyuziv maktablar sonini yanada oshirishda model bo'lib xizmat qiladi.

**Asosiy qisim.** Mazkur jarayon maktablarni qurilish va jihozlanish hozirda amal qilayotgan standartlarini ko'rib chiqish uchun asos bo'ldi. Bu esa Maktabgacha ta'lim

va maktab ta'limi vazirligiga 2027 yilga qadar barcha yangi va ta'mirlangan maktablarning 20 foizida bunday sharoitlarni ta'minlash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga yordam beradi. Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy mahorati va hamkorligi, avvalo, alohida ehtiyojli bolalar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan har qanday holatlarni istisno etadigan, barcha uchun teng muomalani ta'minlaydigan, lekin maxsus ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun zarur sharoit yaratadigan mafkuraga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha uchun ta'lim olish huquqi kafolatlangan. Milliy qonunchiligimizda ham nogironligi bo'lgan shaxslar uchun salohiyatlarini yuzaga chiqarishda teng huquqlar belgilangan. Bugungi kunda nogironligi va rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar sifatli ta'lim olishlari va keyinchalik munosib ish topishlari uchun ularga haqiqiy inklyuziv sharoitlarni yaratish bo'yicha mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta'limning muhim muammolaridan biri bo'lgan alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar guruhini aniqlab, ularga sifatli ta'lim shakllarida bilim berish va salohiyatini oshirishdan iboratdir. Inklyuziv ta'limni rivojlantirishda ustuvor yo'nalishlarga ega bo'lgan tamoyillari va yo'nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan maktabning ta'lim faoliyatiga, yo'nalishlariga, hamda imkoniyatlarga (jismoniy, intellektual) mos kelishi maqsadga muvofiqdir.

Umumiy ta'lim dasturining muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun nogiron

o'quvchilarga maxsus sharoitlar yaratib berilishi kerak. Avvalo, biz mashg'ulotga yondashuvlarni individualizatsiya qilish, xususan, mashg'ulotni tashkil etish uchun shart-sharoitlarni tanlash, vazifalarni bajarish shaklini individuallashtirish va natijalarni taqdim etishning maqbul usullarini tanlash, natijalarni sifatli baholashga yondashish talab qilinadi.

Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilarni ishlashga tayyorlashning bilim to'siqlaridan biri bu hatti-harakatlarida passiv rivojlanish va tuzatishga qaratilgan ishlarini amalga oshirishga qaratilgan asoslar to'g'risidagi bilimlardir. Ushbu bilimlar orqali alohida ehtiyojiga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalashni tashkil qilishda pedagogik faoliyatning dolzarb vakolatlarini shakllantirishdir.

Shu munosabat bilan o'qituvchining psixologik bilimlari va pedagogic vakolatlarini oshirishga qaratilgan maxsus treninglarni tashkil etish alohida

muhim rol o'ynaydi. Ushbu treninglarning vazifalariga pedagogik vakolatlarni motivatsiyali ravishda amalga oshirish kiradi.

**O'quv faoliyatining mazmuni quyidagilarga qaratilgan:**

o'qituvchilar inklyuziya falsafasini qabul qilishlari; bolani kuzatish, uning xulq-atvori va ta'limidagi o'zgarishlarni qayd etish malakalarini oshirish;

pedagogik muammolarni hal qilishda bolaning ota-onasi bilan yaqin hamkorlikni

yo'lga qo'yish va bu o'zaro ta'sirni bola rivojlanishi uchun uning natijalarining maksimal sa Maxsus va yaxlit sinfda ta'lim (TPK) tomonidan tavsiya etilgan umumta'lim dasturlari va chuqur dinamik psixologik-pedagogik imtihon ma'lumotlari asosida sinf rahbarlari va Kengash a'zolari tomonidan birgalikda ishlab chiqilgan individual yo'naltirilgan o'quv rejalari va dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Nogiron bolani rivojlanishi uchun uni qayta ijtimoiylashtirish jarayonlariga qo'shilishi mumkin bo'lgan sharoitlarni yaratish kerak. Bunday muhit o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarini birlashtirishga, shuningdek, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etishda psixologik yordam ko'rsatishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'limda ishlash uchun o'qituvchilarning kasbiy kompetentsiyasining tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi.

- o'qitishning moslashuvchan shakllariga, interfaol o'qitish uslublariga ega bo'lish;

- bilish faoliyati mustaqilligini rag'batlantirish qobiliyati;

- jamoada ishlash qobiliyati, alohida ehtiyojli bolalar ta'limi uchun psixologikpedagogik yordamni yaratish uchun mutaxassislar bilan o'zaro aloqada bo'lish;

- maradorligi bilan tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish.

**Vazifalari.** Alohida ta'limga extiyoji bo'lgan bolalar va rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani maxsus sinflarga va integral sinflarga qo'yish (ko'chirish) otionalarning (qonuniy vakillarning) iltimosiga binoan amalga oshiriladi va ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan rasmiylashtirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Nogiron bolalarni psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash o'qituvchining har xil turdagi sog'lig'i bilan bog'liq muammolarga duch kelgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan birgalikdagi va individual faoliyatini tashkil etish qobiliyatini taxmin qiladi har bir bolaning tarixi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarni to'plash ularni qobiliyati haqidagi bilimlarni oshirishga xizmat qiladi.

Inklyuziv ta'lim o'qituvchisining kasbiy faoliyatiga qo'yiladigan talablardan

biri bu bolaning hissiy barqarorligini nazorat qilish talabidir. Inklyuziv ta'lim o'qituvchisi mentalitetining (Mentalitet-ijtimoiy yoki etnik guruhga, millatga, xalqqa, millatga xos bo'lgan aqliy, hissiy, madaniy xususiyatlar, qiymat yo'nalishlari) tarkibiy xususiyatlari bu munosabatdir:

bolaning qadr-qimmatiga, uning qobiliyatlari va yutuqlaridan qat'iy nazar, har kimning tengdoshlari bilan muloqot qilish, qo'llab-quvvatlash va do'stlik qilish huquqidir.

Nogironligi bo'lgan bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash shakllari ularda texnologiyalarining xilma-xilligi ularning imkoniyatlarini cheklash turlari va darajasi bilan belgilanishi bilan ifodalanishi mumkin, umuman olganda amalga oshirilgan texnologik ketma-ketlik umumiy xususiyatlarga ega.

**Xulosa qilib shuni aytish mumkinki**, inklyuziv ta'limda pedagogik jarayonning mazmun komponenti alohida ehtiyojli bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tarkibning o'zgaruvchanligini ta'minlashdan iboratdir. Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni ma'suliyatini his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib yetishishlariga kata umid bilan qaraladi. Ko'plab mamalakatlarda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham imkoniyati chaklangan bolalar uchun maxsus tashkil etilgan maktablar mavjud ularning vazifasi esa ularni maxsus o'quv yurtlariga tayyorlash hamda ijtimoiy hayotga moslashuviga shart-sharoit yaratishdir.

#### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Абдалова, С. Р. (2021). Та'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda pedagogic maqsad va vazifalarni aniqlashning mohiyati. *academic research in educational sciences*, 2(2), 617-623.
2. Мавлянов, А., Ачиллов, Г. Б., Абдалова, С. Р. (2021). Содержание учебной практики и требования к ним. *Экономика и социум*, 5(2), 996-1003.
3. Абдалова, С. Р. (2021). Таълим сифатини оширишда ўқитиштехнологияларининг ўрни ва роли. *Science and Education*, 2 (Special Issue 1), 218-228.
4. Мавлянов, А., Абдалова, С. Р. (2021). Особенности организации учебного процесса. 65-я международная научная конференция астраханского государственного технического университета, 990-992.
5. Аллахвердиева, Х. В., Абдалова, С. Р., Кахраманов, Н. Т. (2020). Свойства металлополимерных систем на основе полиэтилена низкой плотности и меди. *Молодежь в науке-2020*, 483-485.
6. Zuparova, S., Shegay, A., & Orazova, F. (2020). Approaches to Learning English as the Source of All. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(5).
7. Zuparova, S., Shegay, A. (2021). Methods of Teaching Foreign Languages. *Eastern European Scientific Journal*, 1(7), 141-143.
8. Djurayeva, Y., Ayatov, R., & Shegay, A. (2020). Current Problems and Resolutions of Teaching English Grammar. *Academic research in educational sciences*, 1(3).